

O'ZBEK TILIDAGI MAQOLLARNI O'QUVCHILARGA O'RGATISHDA
INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Qo'qon Universiteti Andijon filiali
Ijtimoiy gumanitar va pedagogika fakulteti
FTO'(o'zb) 25-01 guruh

Talabasi: **Rafiqova Shaxzoda Abduhakim qizi**

Ilmiy raxbari: **Maxfuza Arabboyevna**

Tel: +9989 493 01 02

Annotatsiya: Maqollar milliy qadriyatlarni, xalq donoligini va hayotiy tajribani ifodalaydi. Interfaol metodlar — “Aqliy hujum”, “Zanjir”, “Rol o'ynash”, “Juftini top” va “Klaster” kabi usullar o'quvchilarning faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda nutq boyligini kengaytiradi. Ushbu yondashuv dars jarayonini jonlantirib, o'quvchilarni ona tiliga qiziqtiradi va maqollarni chuqur anglashga yordam beradi. Ushbu maqolada o'zbek xalq maqollarini o'quvchilarga o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Til, maqol, folklor, o'rgatish, xalq og'zaki ijodi, xalq, o'yinlar, topshiriqlar, o'quvchilar.

Аннотация: Пословицы выражают национальные ценности, народную мудрость и жизненный опыт. Интерактивные методы, такие как «Мозговой штурм», «Цепочка», «Ролевая игра», «Найди пару» и «Кластер», повышают активность учащихся, развивают самостоятельность мышления и расширяют речевой запас. Такой подход оживляет процесс урока, пробуждает интерес учащихся к родному языку и способствует глубокому пониманию пословиц. В данной статье подчёркивается важность использования интерактивных методов в обучении учащихся узбекским народным пословицам.

Ключевые слова: язык, пословицы, устное народное творчество, преподавание, народно-прикладное искусство, игры, задания, учащиеся.

Annotation.

Proverbs express national values, folk wisdom and life experience. Interactive methods - such as "Brainstorming", "Chain", "Role playing", "Find a pair" and "Cluster" increase the activity of students, develop independent thinking and expand the wealth of speech. This approach enlivens the lesson process, interests students in their native language and helps to understand proverbs in depth. This article highlights the importance of using interactive methods in teaching Uzbek folk proverbs to students.

Key words: language, proverbs, folk oral literature, teaching, folk applied arts, games, assignments, students.



Bugun kitob o'qib o'tirgan bola
ertaga televizo'r ko'rib o'tirgan o'nta bolani boshqarishi mumkin.

Shavkat Mirziyayev

Kirish. Til – xalqning madaniyati, tarixi va dunyoqarashini aks ettiruvchi noyob hodisa bo'lib, u milliy o'zlikni anglash va madaniy merosni avlodlarga yetkazishda asosiy vosita hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, maqollar til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni eng yorqin namoyon etuvchi til birliklaridan biri sanaladi. Maqollar xalq donishmandligi, ijtimoiy qadriyatlar, milliy mentalitet va ma'naviy mezonlarni o'zida mujassam etadi. Shuning uchun maqollarni o'rganish nafaqat lingvistik, balki madaniy antropologiya, etnolingvistika va lingvokulturologiya nuqtai nazaridan ham muhimdir. Maqollar xalqning hayot tarzi, dunyoqarashi va madaniyatini ifoda etuvchi qisqa va mazmunli hikmatli iboralardir. Ular tilning lingvistik birliklari bo'lishi bilan birga, madaniyat va milliy mentalitetning ifodachisi sifatida o'rganiladi. Lingvokulturologik yondashuvda maqollarning nafaqat lingvistik, balki madaniy-semantik tahlili ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maqol- xalqning borlig'ini aks ettiruvchi ibratli so'zlardir. Grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, kichik, ixcham, o'tkir mazmunli, ko'chma ma'noda, ham o'z ma'nosida qo'llanadigan hikmatli xalq iboralaridir. Maqollar tilning ko'rki hisoblanadi. Ulardagi ixcham ma'no va hajm xalq ma'naviyati, zakovati mahsulidir. Maqollar- bu xalqning donoligini millatning ruhini, uning madaniyatini ko'rsatadigan xalq og'zaki ijodining gavharidir. Maqollarni, xususan, xalq ijodiyotini o'rganish, tadqiq qilish bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu gavhar nafaqat tilshunoslar, balki boshqa turli soha vakillarini ham qiziqtirib qo'ygan: etnograflar, madaniyatshunoslar, folklorshunoslar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar, psixologlar, faylasuflar va boshqalar. Maqollar quyidagi jihatlari bilan til va madaniyat aloqasini ko'rsatadi: Maqollar milliy madaniyatni aks ettiruvchi ramzlar, obrazlar va tushunchalarni o'zida mujassamlashtiradi. Masalan, o'zbek tilida “Ko'pdan qut ketmas” maqolida jamoatchilikqadriyati, birdamlikni ulug'lash kuzatiladi, ingliz tilidagi “Too many cooks spoil the broth” esa individualizmga urg'u beradi. Har bir xalqning ijtimoiy qadriyatlari, tarixiy an'analari va tabiat bilan aloqasi maqollarda aks etadi. Bu ularni boshqa til va madaniyatlardan ajratib turadigan muhim jihatdir. Maqollar ko'p qatlamli semantik tuzilishga ega bo'lib, ularning ma'nosini to'liq tushunish lingvokulturologik tahlilni talab etadi. Folklor- so'z san'atining boshlang'ich na'munasi bo'lib, u behad qadimiy so'z san'ati sanaladi, unda uzoq o'tmishda yashagan ibtidoiy ajdodlarimizning hali yozuvni bilmagan zamonlardagi turish-turmushi, dunyo qarashi va e'tiqodi, kurash va majburiyatlari ifodalangan. 1935- yilda Hodi Zarif va Sh. Rajabiyning “ O'zbek sovet folklorlaridan na'munalar kitobi bosilib chiqqandan keyin mazkur istelohni qo'llash taomilga kira boshladi va asta sekin o'zbek folklorlari tushunchasi zahirida o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi tushuniladigan bo'ldi. O'quvchilarga tarbiya berishning ko'plab usullari mavjud.



Shulardan biri bu xalq og'zaki ijodiyoti hisoblanadi. Ya'ni bunda turli xil ertaklar, afsona-yu rivoyatlar, maqollarning ahamiyati katta. Xalq maqollarining g'oyaviy mazmunida shaxsni to'g'rilikka undash, yxsxshilikka chorlash, uni ma'naviyatini boyitish, o'zligini anglashga yordam berish, umuman olganda shaxsni har tomonlama tarbiyalash yotadi. Shuning uchun ham maktab darsliklarida, badiiy adabiyotlarda turli xil rang-barang maqollardan foydalaniladi.

Xalq maqollari o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda asosiy qurol vazifasini bajaradi. Bunda o'quvchilarga maqollardan ko'zlangan asosiy mazmunni anglatib, ularni tushungan holda qo'llay olishlari uchun eng avvalo, maqollarning leksik-semantik xususiyatlarini o'rgatish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Maqollarning leksik-semantik xususiyatlarini o'quvchilarga o'rgatishda, eng avvalo, ularning yosh toifasi, bilim saviyasi e'tiborga olinadi. Shuningdek, o'quvchilarga maqollarni o'rgatishda turli xil didaktik o'yinlardan ham foydalanish mumkin. Masalan, turli xil bosh qotirmalar, topshiriqlar, rasmi didaktik o'yinlar kabi. O'quvchilarga maqollarning leksik-semantik xususiyatlari asosida o'rgatishning bir necha xil usullari bilan tanishib chiqsak. Bunda quyidagicha topshiriqlardan foydalanish mumkin.

1-topshiriq. Maqollardagi tushirib qoldirilgan so'zlarni toping.

1. Hunar - bebaho... (Aziz, qadriyat, boylik)

2. Nima eksang, shuni...(ko'rasan, o'rasan, yeysan)

2-topshiriq. Berilgan maqollardagi bir-biriga zid ma'noli so'zlarni aniqlang(Masalan, yaxshi-yomon kabi).

1. Birlashgan daryo bo'lur, tarqalgan irmoq bo'lur(Bunda, birlashgan-tarqalgan).

2. Bolali uy - bozor, bolasiz uy - mozor(bunda esa, bolali-bolasiz).

3-topshiriq. Berilgan maqollardan qarama qarshi ma'noli so'zlarni aniqlab yozing.

1.Yaxshi so'z qand yedirar,

Yomon so'z pand yedirar (bunda, yaxshi va yomon).

2. Erta turgan ish bitirar,

Kech turgan ko'p turtinar (bunda esa, erta va kech).

Xulosa. Inson mavjud bo'libdi-ki unda atrof muxitga qiziqish tug'ila boshladi. Shu tariqa ongi va hissiy tuyg'ulari orqali borliqni o'z qarashlariga asosan tushunib yetadi.Tafakkuri orqali idrok etadi. Shu o'rinda savol tug'iladi, inson qanday muloqotga kirishgan ekan? Odamlar tovushlar orqali seza boshlagan va o'zicha talqin qilgan .So'z boyligimiz shunga qarab rivojlangan .Kaftni kaftga urish -olqish belgisi chappilashi chapak qarsillasa qarsak bo'ladi . Shu o'rinda xalq maqollari ham turli vaziyatlarda vujudga kelgan. Unda turli mavzular bo'lib tarbiya , ibrat, donolik, vatanga muhabbat va h.k. lar o'z aksini topgan. O'quvchilarga xalq maqollarimizni an'analarimizni va qadryatlarimizni o'rgatishda bir necha interfaol



metodlardan foydalanishni bir necha usullari bilan tanishtirdim. Erkin Vohidovni so'z haqida ajoyib she'ri bilan yakunlamoqchiman.

So'z-zabarjad,
So'z- gavhar, oltin,
Zargarliknigh mashaqqati ko'p.
So'zni baytga qadashdan oldin
Kaftingga qo'y, to'yib, qara o'p!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maqol o'qish metodikasi(<https://docx.uz/document/maqol-oqish-metodikasi-76e1934e?lang=uz>).
2. Maqollarni o'rganish bilan bog'liq lingvokulturologik yondashuvlar. Adiba Xusniddinovna Fayziyeva (<https://worldlyjournals.com/index.php/Yangiizlanuvchi/article/download/8129/12943/24335>).
3. Bolalar adabiyoti va folklor. Mamasoli Jumaboyev (Tosh 2010-yil “O'qituvchi nashriyoti matbaa ijodiy uyi”).
4. Ichindagi ichingdadir. J. Rumi (Tosh 2009-yil “Yoshlar matbuoti”).
5. So'z latofati. Erkin Vohidov (Tosh 2014-yil “O'zbekiston nashriyoti”).

